

O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOYANI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Norxidirova Sabrina Jurabek qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi sabrinanorxidirova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida soya (*Glycine max*) ekinini yetishtirishning agrotexnik asoslari, iqtisodiy va ekologik ahamiyati hamda mavjud mahalliy va xorijiy seleksiya navlarining xususiyatlari yoritilgan. Oxirgi yillarda ekin maydonlari, hosildorlik ko'rsatkichlari va qayta ishlash hajmlarining tahlili keltirilgan. Shuningdek, "Baraka", "Viktoriya", "Genetika-1", "Nafis", "Oltin toj", "Sochilmas", "Favorit" kabi navlarning biologik va xo'jalik qiymati atroflicha izohlangan. Soya ekinining azotni bog'lashdagi roli, tuproq unumdorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Soya, *Glycine max*, hosildorlik, agrotexnika, navlar, o'simlik moyi, shrot.

Annotation: This article examines the agrotechnical foundations, economic and ecological significance of soybean (*Glycine max*) cultivation under the conditions of Uzbekistan, as well as the characteristics of existing local and foreign varieties. An analysis of cultivated areas, yield indicators, and processing volumes in recent years is presented. Additionally, the biological and economic value of such varieties as "Baraka," "Viktoriya," "Genetika-1," "Nafis," "Oltin Toj," "Sochilmas," and "Favorit" is discussed in detail. The article also provides information on the role of soybean in nitrogen fixation, improving soil fertility, and ensuring food security.

Keywords: Soybean, *Glycine max*, productivity, agronomy, varieties, vegetable oil, meal.

Аннотация: В данной статье освещаются агротехнические основы возделывания сои (*Glycine max*) в условиях Узбекистана, её экономическое и экологическое значение, а также особенности существующих местных и зарубежных селекционных сортов. Приводится анализ посевных площадей, показателей урожайности и объёмов переработки за последние годы. Также подробно разъясняется биологическая и хозяйственная ценность таких сортов, как «Барака», «Виктория», «Генетика-1», «Нафис», «Олтин тож», «Сочилмас», «Фаворит». Представлена информация о роли сои в фиксации азота, повышении плодородия почвы и обеспечении продовольственной безопасности.

Ключевые слова: Соя, *Glycine max*, урожайность, агротехника, сорта, растительное масло, шрот.

KIRISH

Soya (*Glycine max*) — dukkakdoshlar oilasiga mansub, yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan strategik ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi ekinidir. Uning donida ma'lum miqdorda oqsil, yog', shuningdek, muhim aminokislotalar, vitaminlar va mineral moddalar mavjud bo'lib, inson oziqlanishi hamda chorvachilik uchun muhim xom ashyo hisoblanadi. Ayniqsa,

soya donidan o'simlik moyi, shrot va boshqa biologik faol mahsulotlar ishlab chiqarilishi ushbu ekinning iqtisodiy va ekologik ahamiyatini yanada oshiradi.

Soya turli iqlim sharoitlariga moslashuvchan o'simlik bo'lib, uni xilma-xil tuproq-iqlim hududlarida yetishtirish mumkin. Aynan ushbu xususiyati tufayli u bugungi kunda dunyoning ko'plab mintaqalarida keng miqyosda yetishtirilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham soya ekini oxirgi yillarda muhim ahamiyat kasb etib, ekin maydonlari izchil kengayib bormoqda. Ekin rivoji uchun zarur bo'lgan agrotexnik tadbirlar — qator oralari ishlovi, mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish, sug'orish ishlari o'z vaqtida va sifatli amalga oshirildi.

Taqqoslash uchun, o'tkan yillar davomida asosiy maydonlarga hamda g'oz bilan bir qator maydonlarga soya ekildi. Agrotexnik ishlarning izchil olib borilishi natijasida ma'lum miqdorda soya doni yig'ib olindi. Bu esa mamlakatimizda soya yetishtirishni rivojlantirishga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga hosildorlik va qayta ishlash ko'rsatkichlarining oshishi iqtisodiy samaradorlikning yanada ortishiga xizmat qilmoqda. Soya ildiz tizimida joylashgan tugunak bakteriyalari atmosfera azotini o'zlashtirib, tuproqni tabiiy azot bilan boyitadi. Bu esa tuproq unumdorligini oshirishda muhim omil bo'lib, keyingi ekinlar uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, soya almashlab ekish tizimida muhim o'rin tutib, yerning biologik muvozanatini saqlashga ham katta hissa qo'shadi. Iqtisodiy jihatdan esa soya yetishtirish nafaqat yuqori daromad beradi, balki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini ham yaratadi.

Natijada, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanib, qayta ishlash sanoati uchun barqaror xom ashyo bazasi shakllanadi. O'zbekiston Respublikasida soya yetishtirishni kengaytirish va hosildor navlarni joriy etish borasida mahalliy hamda xorijiy seleksion navlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda tavsiya etilgan soya navlari o'zining erta pishishi, yuqori hosildorligi, kasalliklarga nisbatan chidamliligi va turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shular qatorida "Baraka" navi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan mahalliy seleksiya mahsuli hisoblanadi.

Ushbu nav yaqin yillardan boshlab Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari bo'yicha davlat reestriga kiritilgan bo'lib, sug'oriladigan va mexanik tarkibi yengil hamda o'rtacha bo'lgan tuproqlarda yaxshi natija beradi. O'simlik bo'yi o'rtacha bir metrdan ziyodroqqa yetadi, bu esa fotosintez jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi. Vegetatsiya davri to'rt oyni tashkil etib, erta va o'rta pishar navlar guruhiga mansubdir. Mos agrotexnik choralar bajarilganda gektaridan o'rtacha miqdorlarda hosil berishi qayd etilgan. Donlarining oqsillilik darajasi yuqori bo'lib, uni oziq-ovqat va yem-xashak sanoatida keng foydalanish imkonini beradi.

Soya yetishtirishda xorijiy seleksiya namunalaridan biri — Serbiya davlatining "Viktoriya" navi ham keng joriy etilgan. Bu navdan Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida ekilgan. Bo'yi nisbatan past — taxminan bo'lishiga qaramay, poyasi baquvvat va yotib qolishga nisbatan chidamli. Vegetatsiya davri "Baraka" navi bilan teng bo'lib, to'rt oyni tashkil etadi. Mazkur nav ixchamligi tufayli zich ekish uchun qulay bo'lib, mexanizatsiyalashtirilgan hosil yig'imiga juda mos keladi.

Mahalliy seleksion navlardan yana biri “Genetika-1” navi bo‘lib, u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan yaratilgan. Navning asosiy ustun jihati – vegetatsiya davrining juda qisqa ekanligidir. O‘simlik bo‘yi yarim metr atrofida bo‘lib, erta pishar navlar toifasiga kiradi. Bu xususiyati bilan takroriy ekin sifatida ham foydalanish imkonini beradi. Sinov davrlarida qishloq xo‘jalik kasalliklari va hasharotlariga nisbatan yuqori chidamlilik namoyon etgani alohida e‘tiborga loyiq.

“Nafis” soya navi esa O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan bo‘lib, ushbu nav respublika hududida, ayniqsa Toshkent viloyatida ekishga tavsiya qilingan. Ushbu navning donlari yaltiroq, silliq va sariq rangda bo‘lib, yirikligi bilan ajralib turadi. Vegetatsiya davri uch to‘rt oylarni tashkil etadi. Poyasi tik o‘sadi va mexanik o‘rim-yig‘im ishlariga juda qulay. Bu navi asosan oziq-ovqat sanoati uchun muhim xomashyo hisoblanadi.

Mahalliy navlardan yana biri – “Oltin toj” bo‘lib, don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan yaratilgan. Vegetatsiya davri uch oy atrofida bo‘ladi. Ushbu navning muhim xususiyati shamol va noqulay ob-havo sharoitlarida poyasi yotib qolishga moyil bo‘lishidir. Shunga qaramay, erta pishishi uni ayrim hududlarda samara bilan yetishtirishga imkon yaratadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan yaratilgan yana bir muhim nav bu – “Sochilmas” hisoblanadi. “Sochilmas” nomidan ma‘lumki, urug‘lari poyadan to‘kilmaydi, bu esa hosil yo‘qotilishini kamaytiradi. Mexanizatsiyalashtirilgan yig‘im-terim uchun ayni muddao bo‘lgan bu nav sanoat miqyosida yetishtirish uchun juda qulaydir. Bu nav ham soyaning boshqa navlari kabi uch oy davomida pishib yetiladi. Umuman olganda, yuqorida keltirilgan soya navlari O‘zbekistonning turli agroiklim sharoitlarida yetishtirish uchun moslashgan bo‘lib, ularning har biri ma‘lum ustun jihatlarga ega. Ayrim navlar erta pishishi, boshqalari esa yuqori hosildorligi, kasalliklarga chidamliligi yoki mexanik yig‘imga qulayligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli hududning tuproq turi, namlik rejimi va xo‘jalik ehtiyojidan kelib chiqib, nav tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa.

Soya O‘zbekiston sharoitida istiqbolli va strategik ekinlar qatoriga kiradi. Uning keng miqyosda yetishtirilishi, agrotexnik tadbirlarning izchilligi, qayta ishlash korxonalarining rivojlanishi orqali mamlakatning agrar va industrial salohiyati yanada mustahkamlanmoqda. Kelgusida soya yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish, yuqori hosilli navlarni joriy etish hamda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish orqali bu sohada yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Nafaqat oziq -ovqat sifatida balki chorvachilikda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida soya o‘simligini ko‘paytirish ijtimoiy iqtisodiy jihatdan bir qancha qulayliklarni keltirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A., Karimov B. Soya yetishtirish texnologiyasi, Toshkent, 2018.
2. Rustamov S., Nazarov J. O‘zbekiston sharoitida soya ekini, Andijon, 2020.
3. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti. Mahalliy soya navlari tavsifi, Toshkent, 2015.

4. Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti. Soya navlari va agrotexnika tavsiyalari, Toshkent, 2012.
5. FAO. Soybean Production Guidelines, Rome, 2019.
6. Singh G., Gupta R. Soybean Agronomy and Varietal Selection, New Delhi, 2021.
7. Serbiya Qishloq xo'jaligi vazirligi. Soybean Varieties and Cultivation, Belgrad, 2015.